

**Tashkilot nomi:** X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi

**Tarkibiy bo‘lim:** Sud iqtisodiy ekspertizasi bo‘limi

**Tanlov bosqichi:** Suhbat

**Savol yo‘nalishi:** Mutaxassislik bo‘yicha 2 blok (60 savol)

1. Buxgalteriya hisobi sub’ektlari va ob’ektlariga ta’rif bering.
2. Moliyaviy hisobot shakllari va taqdim etilish muddatlari?
3. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonun bo‘yicha boshlang‘ich hisob hujjatlariga ta’rif bering.
4. Buxgalteriya bo‘yicha aktiv schotga ta’rif bering.
5. Buxgalteriya bo‘yicha Balansdan tashqari schotlarga ta’rif bering.
6. Kassa kirim va chiqim orderlari qanaqa hujjat hisoblanadi?
7. Inventarlashning asosiy maqsadlari bo‘lib nimalar hisoblanadi?
8. Buxgalteriya bo‘yicha Sintetik hisobga ta’rif bering.
9. Buxgalteriya bo‘yicha Analitik hisobga ta’rif bering.
10. Soliq kodeksiga muvofiq kimlar soliq to‘lovchilar hisoblanadi?
11. Tovar moddiy zaxiralarning joriy qiymat(i)ga tushuncha bering.
12. Dotatsiya deganda nimani tushunasiz?
13. Subvensiya nima?
14. Subsidiya nima?
15. Buxgalteriya schoti deganda nimani tushunasiz?
16. Buxgalteriya bo‘yicha Kontr-aktiv (KA) schotlarga ta’rif bering.
17. Buxgalteriya bo‘yicha Kontr-passiv (KP) schotlarga ta’rif bering.
18. Buxgalteriya bo‘yicha Tranzit schotlar(T)ga ta’rif bering.
19. Buxgalteriya hisobida doimiy schotlarga ta’rif bering.
20. Buxgalteriya hisobi ob’ektlariga ta’rif bering.
21. Asosiy vositalarni hisobga oluvchi va ularning eskirishini hisobga oluvchi schetlar qaysi?
22. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining 4-sonli milliy standarti bo‘yicha nimalarni hisoblash tartibini belgilaydi?
23. Ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish deganda nimani tushunasiz?
24. Budjetlararo transfertlar deganda nimani tushunasiz?
25. Buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari nima?
26. Vaqtinchalik xarajatlar smetasi tushunchasi?
27. Moliyaviy majburiyat deganda nimani tushunasiz?
28. Ishchi inventarizatsiya komissiyalari javobgarligi nimalardan iborat?
29. Davlat qarzi bu....
30. Soliq kodeksi nimalarni tartibga soladi?

31. Soliq solish prinsiplari nimalarga asoslanadi?
32. Soliq kodeksiga muvofiq majburiylik prinsipi deganda nimalar tushuniladi?
33. Soliqlar deganda nima tushuniladi?
34. Soliq kodeksi muvofiq yig‘im deganda nima tushuniladi?
35. Avans nima?
36. Amortizatsiya nima?
37. Faol bozor bu?
38. Aksiya nima?
39. Aksiyadorlik jamiyatiga va uning turlariga ta’rif bering.
40. Davlat mulki nima va u nechta yo‘l bilan paydo bo‘ladi?
41. Soliq solish ob’ekti nima?
42. Soliq stavkasi nima?
43. Qanday hollarda inventarizatsiya o‘tkazilishi majburiy:
44. Sharhnomalar va uni tuzishning asosiy maqsadi.
45. Tashqi iqtisodiy faoliyati sub’ektlari va ob’ektlari
46. Memorial order nima?
47. Muddati o‘tib ketgan debitorlik qarzi deganda nima tushuniladi?
48. Davlat budgetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasini hamda budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalarni tuzish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartibi haqida gapiring.
49. Kameral nazoratga ta’rif bering?
50. O‘zbekiston Respublikasi ichkarisidagi xizmat safarlari uchun kundalik xarajatlarni to‘lash me’yorlari haqida gapiring.
51. Budget tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi qanday?
52. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004 yil 16 avgustdagги 101-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” ga asosan Asosiy vositalar qanday hollarda balansdan chiqariladi?
53. Budget tizimida ochiqlik prinsipi nima?
54. Xo‘jalik hisobi deganda nimani tushunasiz?
55. Operativ hisobot to‘g‘risida ma’lumot bering?
56. Xususiy korxonaga ta’rif bering.
57. Xususiy korxonaning ustavida nimalar aks ettirilishi lozim.
58. Qimmatbaho (qimmatli) qog‘ozlarga ta’rif bering?
59. YaLPI MILLIY MAHSULOT (YaMM) – bu....
60. Talab (tovarlar va xizmatlarga talab) nima?